

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Bilim va malakalarni baholash agentligining korrupsiya faktlariga doir
murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari haqidagi 2023-yil
HISOBOTI**

I. Umumiy ma’lumot

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligining korrupsiya haqida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa kanallari va boshqa kanallar orqali 2023-yilda 42 ta murojaat kelib tushgan:

- @antikor_dtm_bot – 34 ta (ma’lumot so‘ralgan: test sinovi tashkiliy jarayoni, mandat natijalari va boshqalar);
- e-xat tizimi orqali – 1 ta;
- fuqaro murojaati – 2 ta;
- boshqa kanallar - 5.

Hududlar kesimida korrupsiyaga oid murojaatlar soni:

- Andijon viloyati – 2 ta;
- Buxoro viloyati – 1 ta;
- Namangan viloyati – 2 ta;
- Samarqand viloyati – 1 ta;
- Toshkent viloyati – 1 ta;
- Toshkent shahri – 1 ta.

II. Ko‘rib chiqish natijalari

Murojaatlar klassifikatsiyasi quyidagicha:

- Ma’lumot olish – 34 ta
- Huquqni muhofaza qilish organlari so‘rovi – 1 ta
- Xizmat tekshiruvi doirasida o‘rganishlar o‘tkazildi – 1 ta
- Huquqni muhofaza qilish organlariga yuborildi – 6 ta.

Xizmat tekshiruvida 1 ta murojaatdagi ma’lumot tekshirildi, ya’ni Toshkent shahrida o‘tkaziladigan chet tilini bilish va egallash darajasini aniqlash bo‘yicha CEFR imtihonida shubhali talabgor kuzatuvga olindi, lekin keltirilgan vajlar tasdiqlanmadi (talabgor sertifikat talablarini bajarmagan). O‘rganish natijalari murojaatchiga ma’lum qilindi.

Shuningdek, Chilonzor tumani Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi Tergov bo‘limi so‘roviga (JK 168-modda) muvofiq zarur ma’lumotlar taqdim etildi.

Namangan viloyatida xorijiy davlatlarda ta’lim olganlik to‘g‘risidagi hujjatlarni tan olish imtihonlaridagi korrupsiya holatlari yuzasidan ma’lumot bo‘yicha fuqaro bilan bog‘lanildi, fuqaro bu holatga bevosita guvoh bo‘lmagani, faqat eshitganini ma’lum qildi. Fuqaro firibgarlardan ogohlantirildi. Shunday bo‘lsa ham, mazkur murojaat ko‘rib chiqish uchun Bosh prokuratura va o‘z navbatida Namangan viloyati prokuraturasiga taqdim etildi.

Shuningdek, chet tilini egallash darajasini belgilovchi sertifikatlarni qalbakilashtirish holatlari yuzasidan 5 ta murojaat bo‘yicha to‘plangan materiallar qonuniy baho berish uchun Andijon, Buxoro, Samarqand va Namangan viloyatlari prokuraturalariga rasmiy taqdim etildi.

Qolgan murojaatlar bo‘yicha fuqarolarni qiziqtirgan ma’lumotlar taqdim etildi.

III. Minimallashtirish choralari

Korrupsiya faktlariga doir kelib tushgan murojaatlardan kelib chiqib korrupsion xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha quyidagi choralar ko'rildi.

- chet tilini bilish darajasini aniqlash, malaka sertifikatini yoki ma'lumotnoma olish uchun test sinovlarida xavfsizlik choralari kuchaytirildi, nazoratchilarda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish bo'yicha o'quvlar tashkil etildi;
- chet tilini bilish va egallash darajasini aniqlash bo'yicha sertifikatlariga izoh sifatida ularni tekshirib ko'rish saytlari manzillari kiritildi
- nostrifikasiya va apostil qo'yish bilan bog'liq funksiyalardagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar baholanib, zarur chora-tadbirlar belgilandi.